

## **DORIVOR YERQALAMPIRNING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI VA AHAMIYATI**

*G'ofurjon O'rmonovich To'ychiev*

*Andijon davlat tibbiyot instituti farmasevtik fanlar kafedrasida katta  
o'qituvchisi*

*Mirzabahromov Muhammaddiyor Sanjarbek o'g'li*

*Andijon Davlat Tibbiyot Instituti 2-kurs sanoat farmatsiya  
yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya.** Maqolada karamdoshlar oilasiga mansub (*Armoracia*) erqalampir o'simligining tibbiyotdagi ahamiyati, qo'llanilishi va nojo'ya ta'siri haqida ma'lumotlar va izlanish natijalari keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** Karamdoshlar oilasi, xren, yerqalampir, qalamchalar, lizotsim, teri yaralari.*



Yerqalampir, xren (*Armoracia*) — karamdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik turi, sabzavot ekini. Yevrosiyoda 2 turi bor. Oddiy Yerqalampir (*Armoracia rusticana*) — Yevropa, Hindiston,


AQSH, Xitoy, O'rta Osiyoda ekiladi. Iste'mol uchun yo'g'on etli ildizpoyasi (ziravor sifatida) va bargi ishlatiladi. Tupi serbarg. Bargi yashil, cho'ziq, to'p-to'p bo'lib o'sadi. Ildizi tuproqqa 80—100 sm gacha kirib boradi, ildizpoyasi esa tuproqning 30 sm gacha bo'lgan qismida joylashadi. Yerqalampir yuqori haroratga chidamli, namga talabchan [8].

Ildiz poyalariidan tayyorlangan qalamchalardan (uzunligi 15—20 sm, yo'g'onligi 1 — 1,5 sm) ko'paytiriladi. Kuzda qalamchalar yerto'la yoki issiqxonalarda saqlanadi. Erta bahorda yoki avgust oyida dalalarga qatorlab yoki qo'sh qatorlab ekiladi. 1 gektar maydonga 40—55 ming ko'chat to'g'ri keladi. Kuzda o'suv davri tugagach, ildizmevalari kavlab olinadi. 120—150 s/ga ildizpoya va 350—400 s/ ga barg olinadi [9]. Yerqalampir ildizi va bargida turli mineral tuzlar, vitaminlar va achchiq ta'm beruvchi sinigrin glikozidi mavjud. Undan oshqozon kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Yerqalampir o'ziga xos o'tkir hid va xushbo'y ta'm beradi. Oziq-ovqat sanoatida, turli mahsulotlarni (pomidor, bodring va b.) tuzlashda ishlatiladi. Valkovskiy, Atlant, Suzdal navlari ekiladi. O'zbekistonda shaxsiy tomorqalarda, fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. O'tloq Yerqalampir (*Armoracia sisymbrioides*) — yovvoyi holda uchraydi. Ildizi iste'mol qilinadi [7].



Hozirgi vaqtda farmasevtika sanoatida samaradorligi yuqori sintetik moddalardan keng qo'llanilayotganiga qaramay, dorivor o'simliklar o'z ahamiyatini hanuzgacha yo'qotgani yo'q. Sababi dorivor preparatlarning 40 foizi, xususan yurak-qon tomirlari kasalliklarini davolash sohasida ishlatiladi, dorivor preparatlarning 80 foizi hanuz o'simliklardan olinadi [1].



**Kimyoviy tarkibi:** Barglarida 240-350 mg%, ildizida esa 120-250 mg% askorbin kislota mavjud. Barglarda karotin va alkaloidlar topilgan ; urug'larda yog' va alkaloidlar mavjud [1]. Ushbu dorivor ne'matning tarkibida kaliy, kalsiy, natriy, fosfor, temir va boshqa moddalar mavjud. Shu jumladan, yerqalampir ildizlari va barglarida sinigrin, efir moyi, uglevodlar, askorbin kislota (vitamin C), karotin (provitamin A), lizozim, shakar, kraxmal, qatronlar, kaliy tuzlari, kalsiy, fosfor va fitonsidlar mavjud. Ayniqsa yangi yerqalampir ildizi sharbatida mikroblarga qarshi ta'sirga ega bo'lgan lizotsim fermenti , tiamin , riboflavin , karotin , xantal moyi, kraxmal , uglevodlar (74%) va smolali moddalar mavjud [2].



Lizotsim



Tarkibida fitonsidlar borligi tufayli u tibbiyotda zararli bakteriyalar, viruslarga qarshi, teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Hujayra va to'qima shirasida qon tomirlarni devorini mustahkamlaydigan, o'tkazuvchanlikni kamaytiradigan, qon ivishida qatnashadigan kalsiy elementi ham yerqalampir ildizida talaygina. Ular C vitamini va flavanoidlar manbai o'laroq tavsiya etiladi [3]. erqalampirning yana foydali xususiyatlari shundan iboratki, vitamin, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, qonni tozalash, ishtahani ochish va ovqat hazm qilishni yaxshilash kabi hususiyatlarga ega [4].

Fermentatsiyadan keyin ildizlardan efir moyining chiqishi 0,05% ni tashkil qiladi, uning asosiy komponenti xantal yog'idir . Bundan tashqari, efir moyi tarkibida feniletal va fenilpropil mavjud. O'simlik shuningdek , molekulyar biologiyada keng qo'llaniladigan peroksidaza fermentini o'z ichiga oladi [1].

Xususan, bu ferment antigen-antikor o'zaro ta'siri (dianisidin bo'yog'ining rangli shaklga oksidlanishi) bilan bog'liq reaksiyani vizualizatsiya qilish uchun ferment immunoassaylarida, shuningdek luminesans yordamida namunadagi o'ziga xos oqsillarni aniqlashning ba'zi usullarida qo'llaniladi[6].

O'simlikning shifobaxsh xususiyatlari juda keng:

- Balg'am ko'chirish xususiyatiga ega. Shuning uchun u tez-tez shamollash ishlatiladi. Bu tabiiy antibiotik hisoblanadi. U odamni turli infeksiyalardan himoya qilishga qodir.

- Siydik va o't xaydash xususiyatlarga ega.
- Oshqozon-ichak trakti faoliyatini yaxshilaydi.
- Ishtahani ochadi.
- Qon shakar darajasini normallantiradi.
- Kariyesdan himoya qiladi.
- Teri yaralari va yiringli yaralarni davolashga yordam beradi.
- Mushak og'rig'ini yo'q qiladi.



Traxeit, bronxit, uzluksiz yo'talda qo'llaniladi. Bunda qirg'ichdan o'tkazilgan bir qoshiq yerqalampir uch qoshiq asal bilan aralastirib, tindirilib, bir kunda bir mahal bir choy qoshiqdan iste'mol qilinadi [8]. Sistit va uretrit dardiga chalingan bemorlar uchun: qirg'ichdan o'tkazilgan bir osh qoshiq yerqalampirni 100 ml qaynoq suv bilan aralastirilib, 5 daqiqa usti yopib tindirib qo'yiladi va bir kunda 3-4 mahal ichiladi [8]. O'zining foydali xususiyatlari tufayli yerqalampir ildizi tomoq og'rig'i , gingivit va stomatit , tonzillit , yiringli yaralar va oshqozon yarasi, gepatit , shamollash, yo'tal , shish va astsit, siydik toshi kasalliklari , siyish qiyinlishuvi, yiringli yaralar uchun ishlatiladi [4].

Tashqi tomondan chayish, yuvish, instilatsiya qilish shaklida yerqalampir preparatlari tomoq og'rig'i , stomatit, gingivit, otit , yiringli yaralar, yaralar, sepkillar, dog'lar uchun ishlatiladi. Maydalangan yerqalampir radikulit , nevralgia , artikulyar revmatizm uchun kompress sifatida ishlatiladi [5].

Masalan, yerqalampirning un, tuz va sirka bilan qizdirib tayyorlanadigan malhami xalq tabobatida keng qo'llaniladi. Malham quyidagicha tayyorlanadi. 1-2ta yerqalampir ildizi qirg'ichdan o'tkaziladi. Teng miqdorda kepek, un, tuz va osh sirkasi qo'shib aralastiriladi. Tayyor quyuq bo'tqani 0.5-1 sm qalinlikda yupqa xaltachaga solib , og'riq joyga qo'yiladi. Muolaja vaqti 2-5 soat [3]. Yerqalampirning bir qator yevropa mamlakatlarida zamonaviy tibbiyotda tutgan o'rni katta .Jumladan, Germaniyada qattiq jelatinli kapsula dori shakli BAD holatida ishlab chiqariladi [2]. Bundan tashqari hozirda tarkibida yerqalampir ildizi bo'lgan gellar ishlab chiqarilmoqda. Chunki, yerqalampir ildizining

mikroblarga qarshi, og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi, to'qimalarning qayta tiklanishiga ko'maklashuvchi hususiyatlari zamonaviy tibbiyot tomonidan ham qadrlanmoqda [3].



**Xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, qadimdan xalq tabobatida shifobaxs o'simliklarda keng foydalanilgan. Ulardan damlamalar, qaynatmalar, malhamlar, yig'ma choylar tayyorlangan. Har bir giyoh tabiatning bizga bergan ne'matidir. Huddi shunday Yerqalampir kabi shifobaxsh o'simliklar turlari juda kopi yurtimizda ham bor. Ulardan oqilona foydalanishimiz va zamonaviy texnologiyalar yordamida , hozirgi davr talablariga javob bera oladigan holatda har hil dori shakllarida turli kasalliklarni davolashda turli dori vositalari, biologik faol qo'shimchalar va oziq-ovqat qo'shimchalari yaratish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmatov X.X. FARMAKOGNOZIYA I QISM 5-6 bet. Toshkent — 2008
2. TEXTBOOK OF PHARMACOGNOSY AND PHYTOCHEMISTRY Biren N. Shah
3. Azimjon Jo'rayev Xalq tabobati "SHARQ" 2008 571-572 bet
4. Natural Product Research Formerly Natural Product Letters Volume 34, 2020 - Issue 11 Simona Manuguerra, Letteria Caccamo
5. K. Wedelsback Bladh Journal of Herbs, Spices & Medicinal Plants Volume 17, 2011 - Issue 3
6. Gonchareva T.A Yerqalampir/Dorivor o'simliklar ensiklopediyasi 1997
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
8. V.Belolipov, X.Ch.Buriev, E.B.Juraev, R.Z.Murodov "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar genafondini saqlash, madaniylashtirish va tabobatda foydalanish". Toshkent 2020 y.
9. Agroximiya (Pod red. B. A. Yagodina). Moskva, 1982 y.